

ELEKTRON HUJJAT AYLANISH TIZIMI VA RAQAMLI IMZO

Tajiboyeva Surayyo Qahramon qizi

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti Ommaviy huquq fakulteti Davlat va jamiyat boshqaruvi yo'nalishi 2-bosqich talabasi e-mail:tajiboyevasurayyo43@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola elektron hujjat aylanishi va raqamli imzo institutining zamonaviy davlat boshqaruvidagi o'rni, ularning iqtisodiy, siyosiy va huquqiy boshqaruvdagi samaradorligiga qaratilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida raqamli transformatsiya jarayonlarini huquqiy jihatdan ta'minlashga qaratilgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonun, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida" hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasining elektron hujjat aylanishi sohasidagi ahamiyati tahlil qilinadi.*

Maqolada elektron hujjatlarning yuridik kuchi, ularning raqamli imzo bilan tasdiqlanish mexanizmlari, axborot xavfsizligi va ma'lumotlar maxfiyligi ta'minlash masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, electron imzo infratuzilmasining texnik tayyorgarligi, davlat organlari o'rtasida o'zaro ma'lumot almashishning huquqiy va texnologik muommolar muommolarini o'rganadi.

Kalit so'zlar: *Elektron hukumat, electron hujjat, raqamli imzo, "Raqamli O'zbekiston – 2030".*

ELECTRONIC DOCUMENT MANAGEMENT SYSTEM AND DIGITAL SIGNATURE

Abstract: *This article comprehensively explores the role of the electronic document management system and the institution of digital signatures in modern public administration, as well as their impact on economic and legal efficiency. The study focuses on key regulatory documents of the Republic of Uzbekistan aimed at supporting digital transformation processes, including the Laws "On Electronic Government," "On Electronic Documents and Digital Signature," and the "Digital Uzbekistan – 2030" Strategy.*

The article analyzes the legal validity of electronic documents, mechanisms of their authentication through digital signatures, and issues related to information security and data privacy. It also examines challenges in the technological readiness of digital signature infrastructure and the legal aspects of data exchange between government bodies.

Keywords: *e-Government, .electronic document, digital signature, "Digital Uzbekistan – 2030".*

KIRISH

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib bordi.

Ayniqsa, boshqaruv, ma'muriy ish yuritish va hujjatlar almashinuvini raqamlashtirish jarayoni bugungi kunda tashkilotlar samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutmoqda.

Shu nuqtai nazardan, elektron hujjat aylanish tizimi (EHAT) va raqamli imzo texnologiyalarini joriy etish davlat boshqaruvi, biznes muhit va ta'lim sohalarida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

Elektron hujjat aylanish tizimi – bu hujjatlarning yaratilishidan tortib ularni tasdiqlash, saqlash, uzatish va arxivlashtirishgacha bo'lgan butun jarayonni elektron muhitda amalga oshirish imkonini beruvchi dasturiy yechimdir.

Bunday tizim qog'oz sarfini kamaytiradi, vaqtni tejaydi, inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytiradi hamda tashkilot ichidagi ish yuritish jarayonlarini ancha soddalashtiradi. Eng muhimi, elektron hujjat aylanishi axborot xavfsizligi, shaffoflik va tezkorlikni ta'minlaydi.

Mazkur tizim samarali ishlashi uchun elektron raqamli imzo (ERI) texnologiyasi alohida ahamiyatga ega. Raqamli imzo hujjatning haqiqiylikini, uning mazmuni o'zgarmaganini va uni imzolagan shaxsning shaxsi aniq ekanligini tasdiqlaydi.

Shu orqali har qanday elektron hujjat yuridik kuchga ega bo'ladi va uni qog'ozdagi hujjat bilan tenglashtirish mumkin. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlariga katta e'tibor berilmoqda. "Elektron hukumat" tizimini joriy etish, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi va "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonun bu yo'nalishda mustahkam huquqiy va tashkiliy asos yaratdi. Bugungi kunda ko'plab davlat idoralari, oliy ta'lim muassasalari hamda xususiy korxonalar elektron hujjat aylanish tizimlariga bosqichma-bosqich o'tmoqda.

Shunday qilib, elektron hujjat aylanish tizimi va raqamli imzo texnologiyalari nafaqat ish yuritish jarayonini avtomatlashtirish vositasi, balki boshqaruv samaradorligini oshirish, inson resurslarini optimallashtirish va axborot xavfsizligini mustahkamlashning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ushbu mavzuni o'rganish orqali elektron boshqaruvning amaliy ahamiyati, qonunchilikdagi o'zgarishlar hamda texnologik imkoniyatlar yanada chuqur tahlil etiladi.

Materiallar va usullar.

Elektron hujjat aylanishi – bu hujjatlarga electron shaklda ishlov berish bo'yicha jarayonlar tizimidir. Aksariyat buxgalterlik va kadrlarga oid dasturlar elektron hujjatlarni qonun hujjatlari talablariga asosan shakllantirishni "biladi". Mana shu yerda elektron hujjat aylanishi operatori bo'lib xizmat qiluvchi qandaydir vositachi (uchinchi shaxs) mavjudligi masalasi turadi.

Elektron hujjat aylanishi operatorining dasturiy ta'minoti ikkita kompaniya o'rtasida hujjat almashish imkonini beradi, yetkazib berishni kafolatlaydi, hujjatlar formatini, ikkala tarafning ERI dolzarbligini nazorat qiladi, ikkala taraf ham foylana oladigan arxiv tuzadi. Operator davlat yoki xususiy tijorat korxonasi bo'lishi mumkin.

Bunda ushbu dastaklarning barcha manfaatdor davlat organlari (DSI, prokuratura, sud organlari va h.k.) tomonidan e'tirof etilishi to'g'risidagi masala turadi. Bugungi kunda O'zbekistonda tashkilotlar o'rtasida elektron hujjat aylanishini ta'minlaydigan bitta platforma ishlayapti. Ko'pgina kompaniyalar ushbu tizim orqali uzatilgan hujjatlarning huquqiy maqomi e'tirof etilishiga ishonch hosil qilganlarida, undan foydalanishga rozi bo'lishardi. Elektron hujjat aylanishining davlat dastagi tadbirkorlarda ko'proq ishonchga sazovor bo'lardi.

Elektron hujjatning boshqa varianti – bu buxgalteriya hisobi uchun keng tarqalgan dasturlardan foydalanish. Mamlakatimiz ishlab chiquvchilari, jumladan 1UZ, milliy qonunchilikni inobatga oladigan o'z versiyalarini ro'yobga chiqarishgan bo'lardi. Biroq, baribir huquqiy maqomni e'tirof etishga bog'liq bo'ladi. Tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi to'g'risida”gi Qonuni, “Elektron raqamli imzo to'g'risida”gi qonuni, asosiy manba sifatida o'rganildi.

Shu bilan birga, elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot rivojiga oid Prezident farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari normativ-huquqiy asoslarni yoritishda foydalanildi. Empirik tahlil uchun bir qator xorijiy davlatlar — Estoniya, Janubiy Koreya, Singapur va Rossiya Federatsiyasining elektron hujjat aylanish tizimlari amaliy tajribalari solishtirildi. Ushbu mamlakatlar tanlanishiga sabab ularning elektron boshqaruvda yuqori samaradorlikka erishganligi va raqamli imzo texnologiyalarini keng joriy etganligidir.

Xususan, Estoniyaning “e-Estonia” platformasi, Janubiy Koreyaning “Government 24” tizimi va Rossiyaning “Gosuslugi” portali o'rganilib, ularning texnik yechimlari va huquqiy yondashuvlari tahlil qilindi. Mahalliy amaliyotni o'rganish maqsadida O'zbekiston Respublikasi “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” (my.gov.uz), shuningdek, ayrim vazirlik va idoralarda joriy etilgan elektron hujjat aylanish platformalari (xususan, “E-IMZO” va “E-XAT” tizimlari) faoliyati tahlil qilindi. Bu tizimlar orqali hujjat tasdiqlash, elektron imzolash, yuborish va saqlash jarayonlarining texnik hamda tashkiliy jihatlari o'rganildi.

Natijalar. Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil holatiga kelib O'zbekistonda “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” (my.gov.uz) orqali 700 dan ortiq turdagi davlat xizmatlari aholiga elektron shaklda taqdim etilmoqda. Shulardan 20130 dan ortig'i elektron raqamli imzoni (E-IMZO) talab qiluvchi xizmatlar hisoblanadi. 2021-yilda portal orqali 9,2 milliondan ortiq elektron arizalar qabul qilingan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 15 milliondan oshgani qayd etilgan. Shuningdek, “E-IMZO” tizimi foydalanuvchilari soni yil sayin ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda 4,5 milliondan ortiq fuqarolar va tashkilotlar elektron raqamli imzo sertifikatlariga ega. Bu esa 2020-yildagi ko'rsatkichga nisbatan qariyb 2,3 baravar o'sish demakdir. Elektron imzo orqali yuborilgan hujjatlarning umumiy ulushi esa davlat idoralarda 85 foizdan

²⁰ <https://lex.uz/docs/-165079>

https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/buhgalteriyada_elektron_hujjat_aylanishi_yutuq_va_muammolar

oshgan. Elektron hujjat aylanish tizimlari (EHAT) davlat sektoridan tashqari xususiy sohada ham joriy etilmoqda. Jumladan, banklar, sug'urta kompaniyalari, oliy ta'lim muassasalari va korporativ tashkilotlarda "E-XAT", "InterDoc", "Documentolog" kabi tizimlardan keng foydalanilmoqda. Ushbu tizimlar hujjatlarni tasdiqlash, imzolash, yuborish va arxivlash jarayonlarini avtomatlashtirish orqali samaradorlikni 25–40% gacha oshirgan. Xalqaro miqyosda olib borilgan taqqoslama tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston elektron hujjat aylanishi va raqamli imzo tizimlari rivoji bo'yicha barqaror ijobiy o'sish ko'rsatkichlariga ega. BMTning 2024-yilgi "E-Government Development Index (EGDI)" reytingida O'zbekiston 193 davlat orasida 77-o'rinni egallagan bo'lib, bu 2020-yilga nisbatan 11 pog'onaga yuqori natijadir. Bu esa elektron boshqaruv infratuzilmasi, 21onlayn xizmatlar va raqamli identifikatsiya tizimlarining yanada rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Tahlil jarayonida, shuningdek, elektron hujjat aylanish tizimlarini joriy etish jarayonida ayrim texnik va tashkiliy muammolar ham aniqlangan. Xususan, ayrim hududlarda internet infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi, raqamli imzodan foydalanish bo'yicha aholining xabardorlik darajasi pastligi, hujjatlarning turli tizimlar o'rtasida integratsiyasi bilan bog'liq muammolar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, so'nggi yillarda bu muammolarni bartaraf etish maqsadida davlat tomonidan "Elektron hukumatni rivojlantirish markazi" faoliyati kengaytirilib, yagona identifikatsiya tizimi (OneID) va yagona hujjat aylanish platformalarini integratsiyalash ishlari boshlangan. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqadiki, elektron hujjat aylanish tizimi va raqamli imzo texnologiyalari O'zbekistonda nafaqat davlat boshqaruvi samaradorligini oshirmoqda, balki fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun ham qulay raqamli muhit yaratmoqda. Elektron xizmatlardan foydalanish hajmi ortib borayotganligi, hujjatlarning tezkor aylanishi va ularning xavfsiz tasdiqlanishi raqamli iqtisodiyotning shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida elektron hujjat aylanish tizimi va raqamli imzo joriy etilishi bo'yicha barqaror ijobiy dinamikaga erishilgan. Kelgusida bu jarayonni yanada takomillashtirish uchun xalqaro tajribani chuqur o'rganish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va foydalanuvchilar uchun qulay sharoitlar yaratish zarur.

Manfaatlar to'qnashuvi. Elektron hujjat aylanish tizimi va raqamli imzodan foydalanish jarayonida turli manfaatlar to'qnashuvi ehtimoli mavjud bo'lib, bu holat asosan axborot xavfsizligi, shaffoflik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq. Tizimni joriy etish davlat, xususiy sektor va fuqarolar manfaatlarini bir nuqtada muvofiqlashtirishni talab etadi. Davlat uchun asosiy manfaat — boshqaruv samaradorligini oshirish, hujjat aylanishini tezlashtirish va byurokratik to'siqlarni kamaytirishdir. Shu bilan birga, fuqarolar manfaatlari ularning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, raqamli imzo orqali amalga oshirilgan hujjatlar xavfsizligini kafolatlash

²¹ <https://lex.uz/docs/-165079>

²² https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/buhgalteriyada_elektron_hujjat_aylanishi_yutuq_va_muammolar

bilan bog'liq. Xususi sektor esa ko'proq iqtisodiy foyda, xizmat ko'rsatish tezligi va texnologik qulaylikni ko'zlaydi. Ushbu uch yo'nalishdagi manfaatlar har doim ham to'liq mos kelmasligi natijasida ma'lum to'qnashuvlar vujudga keladi. Masalan, ayrim hollarda hujjat aylanishini soddalashtirish maqsadida foydalanuvchi ma'lumotlariga kengroq ruxsat berilishi mumkin. Bu esa shaxsiy ma'lumotlar himoyasi nuqtayi nazaridan xavf tug'diradi. Shu sababli, elektron tizimlarda ochiqlik va maxfiylik o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhim masalalardan biridir. Shuningdek, manfaatlar to'qnashuvi texnik xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatida ham kuzatilishi mumkin. Masalan, elektron imzo sertifikatlarini ishlab chiqish, yangilash yoki bekor qilish bo'yicha vakolatli markazlar davlat idoralariga bo'ysunsa-da, ularning tijoriy manfaatlari ham mavjud. Bu holatda nazorat mexanizmlarining yetarli bo'lmasligi korrupsiya xavfini oshirishi mumkin. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish uchun huquqiy asoslar aniq belgilanishi, ma'lumotlar bilan ishlashda oshkoralik va javobgarlik tamoyillari kuchaytirilishi lozim. O'zbekistonda bu borada "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun, "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonun hamda "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonunlar ushbu jarayonni tartibga soluvchi asosiy normativ hujjatlar sifatida xizmat qilmoqda. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, qonuniy normalarni amalda to'liq bajarish uchun qo'shimcha monitoring tizimlari, mustaqil nazorat organlari va foydalanuvchilarning raqamli huquqlarini himoya qiluvchi mexanizmlar zarur. Aholining raqamli savodxonligini oshirish, tizimdagi xatolik va suiiste'mollik holatlari yuzasidan tezkor xabar berish imkoniyatini yaratish ham manfaatlar muvozanatini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, elektron hujjat aylanish tizimi va raqamli imzo texnologiyalarini rivojlantirishda manfaatlar to'qnashuvini kamaytirish — nafaqat texnik, balki huquqiy va axloqiy masaladir. Har bir ishtirokchining mas'uliyatini aniq belgilash, shaffof boshqaruv tamoyillarini mustahkamlash va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash bu sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Muhokama. Tadqiqot jarayonida elektron hujjat aylanish tizimi va raqamli imzoni joriy etish bo'yicha olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, bu jarayon O'zbekistonning davlat boshqaruvi tizimida tub o'zgarishlarni boshlab berdi. Hujjatlar almashinuvi, ularni tasdiqlash va saqlash jarayonlarining raqamli shaklga o'tishi ish yuritish madaniyatini o'zgartirib, samaradorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Eng muhimi, raqamli imzo orqali hujjatlarning haqiqiyliги va yuridik kuchi ta'minlanishi natijasida huquqiy xavfsizlik darajasi ancha mustahkamlandi.

Muhokama davomida aniqlangan asosiy jihatlardan biri shuki, elektron hujjat aylanish tizimi nafaqat texnik yechim, balki boshqaruv madaniyatining o'zgarishini ham talab qiladi. Yangi tizimni muvaffaqiyatli joriy etish uchun inson resurslarini qayta tayyorlash, axborot savodxonligini oshirish va tashkilotlararo integratsiyani kuchaytirish zarur. Ba'zi hollarda xodimlarning raqamli ko'nikmalari yetishmasligi

²³ <https://arxiv.uz/ru/documents/slaydlar/informatika-va-at/elektron-hujjat-aylanishlar-tizimi-va-raqamli-imzo>

²⁴ <https://lex.uz/docs/-6234904>

yoki eski ish yuritish uslubiga o'rganib qolganliklari tufayli yangi tizimdan to'liq foydalanish imkoniyati cheklanmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, elektron hujjat aylanish tizimining samarali ishlashi uchun yagona standartlar, yagona ma'lumotlar bazasi va raqamli identifikatsiya tizimi zarur. O'zbekiston ham bu yo'nalishda izchil qadamlar tashlamoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida axborot tizimlarini integratsiyalash, davlat xizmatlarini to'liq onlayn shaklga o'tkazish va "sun'iy intellekt" yechimlarini tatbiq etish ishlari olib borilmoqda. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, elektron hujjat aylanish tizimi va raqamli imzoning amaliy foydasi faqat davlat idoralari bilan cheklanmaydi. Xususiy sektor, ta'lim muassasalari, banklar va sog'liqni saqlash tizimi ham bu texnologiyadan samarali foydalanmoqda. Bu esa raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga, biznes jarayonlarining shaffoflashuviga va xizmatlar sifatining oshishiga xizmat qilmoqda. Shunga qaramay, ayrim muammolar hamon mavjud. Jumladan, turli tashkilotlar o'rtasidagi tizimlar integratsiyasi to'liq yo'lga qo'yilmagani, ayrim hududlarda internet infratuzilmasining sustligi hamda foydalanuvchilarning raqamli madaniyati pastligi jarayonni sekinlashtirmoqda. Shu bois, keyingi bosqichlarda texnik modernizatsiya bilan bir qatorda aholining raqamli savodxonligini oshirishga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

Xulosa. Xulosa qilib, elektron hujjat aylanish tizimi va raqamli imzo texnologiyalari O'zbekistonning raqamli transformatsiyasi uchun strategik ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar nafaqat boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish va tezlashtirish imkonini beradi, balki davlat, fuqarolar va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Raqamli tizimlarni joriy etish jarayonida yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvi va texnik, tashkiliy muammolarni samarali boshqarish uchun normativ-huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish, foydalanuvchilar savodxonligini oshirish va integratsiyalashgan platformalarni rivojlantirish zarur. Shu bilan birga, tizimning barqaror ishlashi uchun axborot xavfsizligi, shaffoflik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tamoyillari mustahkamlashi lozim.

Kelajakda elektron hujjat aylanish tizimi va raqamli imzo integratsiyasi O'zbekistonning raqamli iqtisodiyot va davlat xizmatlarini yanada takomillashtirish, innovatsion yechimlar joriy etish va global raqamli makonda raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu jarayon mamlakatda shaffof, xavfsiz va qulay boshqaruv muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Takliflar

1. Elektron hujjat aylanish tizimlarining yagona texnik standartlarini ishlab chiqish va barcha tashkilotlarda bir xil formatni joriy etish;
2. Raqamli imzodan foydalanish bo'yicha aholining axborot savodxonligini oshirish uchun o'quv dasturlarini kengaytirish;
3. Internet infratuzilmasini, ayniqsa chekka hududlarda, mustahkamlash va keng polosali tarmoqlarni joriy etish;

4. Xalqaro tajribani o'rganib, elektron hujjat aylanish tizimiga sun'iy intellekt va avtomatik hujjat tahlil texnologiyalarini integratsiya qilish;

5. Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun milliy kriptografik himoya mexanizmlarini kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kussainova A. K., Kussainov D., Zhumagulov B., Simtikov Z. "Legal Issues for Electronic Documents Workflow Regulation" — Law, State and Telecommunications Review,

2. <https://lex.uz/docs/-165079>

3. https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/buhgalteriyada_elektron_hujjat_aylanishi_yutuq_va_muammolar

4. <https://arxiv.uz/ru/documents/slaydlar/informatika-va-at/elektron-hujjat-aylanishlar-tizimi-va-raqamli-imzo>

5. <https://lex.uz/docs/-6234904>

6. [https://desapublications.un.org/sites/default/files/publications/2024-09/\(Addendum\)%20E-Government%20Survey%202024%201392024.pdf](https://desapublications.un.org/sites/default/files/publications/2024-09/(Addendum)%20E-Government%20Survey%202024%201392024.pdf)